


IX. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK



2024-yilning yanvar-iyunida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi




Andijon viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Dastlabki ma'lumotlar

➤ 2024-yilning yanvar-iyunida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi 64,0 % ni tashkil etdi.

➤ Kichik biznes subyektlarining soni har 1000 aholiga 13,6 birlikni tashkil qildi.

➤ 2024-yilning yanvar-iyunida 2 279 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga 100,8 foizni tashkil etdi.



2024-yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da

Savdo
39,2 %

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
6,4 %

Sanoat
24,9

Qurilish
5,1

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda 894 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 145 ta, sanoatda 568 ta, qurilishda 116 ta, yashash va ovqatlanishda 159 ta hamda tashish va saqlashda 70 ta tashkil etilgan.

Yanvar-iyun oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari

	O'lchov birligi	2023-y.	2024-y.	Farqi (+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlikda	24 240	23 026	-1 214
Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlikda	2 260	2 279	19
<i>Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushlari:</i>				
YAHM	%	65,0	64,0	-1
Sanoat	%	23,3	24,3	1
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	98,1	98,0	-0,1
Investitsiya	%	74,7	65,4	-9,3
Qurilish	%	98,1	95,1	-3
Chakana savdo	%	92,9	91,8	-1,1
Xizmatlar	%	65,5	65,1	-0,4
Yuk tashish	%	95,4	96,0	0,6
Yuk aylanmasi	%	82,4	77,0	-5,4
Yo'lovchi tashish	%	98,6	97,1	-1,5
Yo'lovchi aylanmasi	%	92,4	94,9	2,5
Eksport	%	32,3	40,8	8,5
Import	%	14,0	18,1	4,1



2024-yilning yanvar-iyunida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining YAHM va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, % da


YAHM 64,0 %	Savdo 91,8 %
Sanoat 24,3 %	Qurilish 95,1 %
Investitsiya 65,4 %	Eksport 40,8 %
Xizmatlar 65,1 %	Import 18,1

**Tuman va shaharlar bo'yicha yangi tashkil etilgan
kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda**

	2023-yil yanvar-iyun	2024-yil yanvar-iyun	(+;-)
Andijon viloyati	2 260	2 279	19
<i>shaharlar:</i>			
Andijon sh.	532	453	-79
Xonobod sh.	20	40	24
<i>tumanlar:</i>			
Oltinko'l	132	127	-5
Andijon	240	189	-51
Baliqchi	136	163	27
Bo'ston	93	125	32
Buloqboshi	70	107	37
Jalaquduq	69	102	33
Izboskan	123	121	-2
Ulug'nor	69	106	37
Qo'rg'ontepa	130	185	55
Asaka	171	147	-24
Marhamat	136	108	-28
Shahrixon	134	118	-16
Paxtaobod	96	72	-24
Xo'jaobod	109	112	3



2024-yilning yanvar-iyunida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha ulushi, % da




2024-yilning yanvar-iyun oylarida tuman va shaharlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Andijon shahri – 19,9 %, Andijon tumani - 8,3 %, Asaka tumani – 6,5 %, Shahrixon tumani - 5,2 %, Qo'rg'ontepa tumani – 8,1 %, Oltinko'l tumani – 5,6 % va Izboskan tumani – 5,3 % ga tegishli.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan
kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda**

	2023-yil yanvar-iyun	2024-yil yanvar-iyun	farqi (+;-)
Jami	2 260	2 279	19
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	167	145	-22
Sanoat	489	568	79
Qurilish	154	116	-38
Savdo	953	894	-59
Tashish va saqlash	109	70	-39
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	93	159	66
Axborot va aloqa	60	66	6
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	66	69	3
Boshqa faoliyat turlari	169	192	23

***Ma'lumot uchun:** 2024-yilning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:*




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori o'ringa ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda

	2023-yil yanvar-iyun	2024-yil yanvar-iyun	Farqi (+;-)
Andijon sh.	532	453	-79
Andijon t.	240	189	-51
Asaka t.	171	147	-24
Shahrixon t.	134	118	-16
Qo'rg'ontepa t.	130	185	55
Oltinko'l t.	132	127	-5
Izboskan t.	123	121	-2
Baliqchi t.	136	163	27

2024-yilning yanvar-iyunida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Andijon shahrida - 453 tani tashkil etdi.



Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda
(yanvar-iyun)






2024-yil yanvar-iyun oylarida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 6,8 birlikni tashkil etdi.



Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining soni
(har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-iyun holatiga ko'ra*




2024-yilning yanvar-iyunida kichik biznes subyektlarining faoliyat yuritayotganlar soni har 1000 aholiga tuman va shaharlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Andijon shahrida 12,8 birlik, Bo'ston shahrida 10,2 birlik, Ulug'nor tumanida 9,7 birlik, Xonobod tumanida 9,1 birlik, Andijon tumanida 6,7 birlik, Baliqchi tumanida 6,4 birlikni tashkil etgan. Izboskan tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib, 4,4 birlikka to'g'ri keldi.

* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)



2023-2024-yillarning yanvar-iyunida tuman va shaharlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining soni
(har 1000 aholiga, birlikda)*




2024-yil yanvar-iyun oylarida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan viloyat bo'yicha 6,8 birlikni tashkil etdi. Mazkur ko'rsatkich shahar va tumanlar kesimida o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanganda pasayish bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Bo'ston tumanida 1,1 birlikka, Ulug'nor tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib, 0,5 birlikka pasaygan.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda).*



2024-yilning yanvar-iyunida har 1000 aholiga to'g'ri keladigan kichik biznes subyektlari soni eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda*



Andijon viloyatida kichik biznes subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)

Eng yuqori ko'rsatkich

- Andijon shahri
- 26,5 birlik

O'rtacha ko'rsatkich

- Oltinko'l tumani
- 11,9 birlik

Eng past ko'rsatkich

- Paxtaobod tumani
- 9,0 birlik

* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi, (yanvar-iyun holatiga ko'ra, % da)

2024-yilning yanvar-iyunida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi 64,0 % ni tashkil qildi. (2023-yilning yanvar-iyunida 65,0 %).

YAHMning o'tgan yilning mos davriga nisbatan ulushi – 1% ga kamaydi.

66,4 %

2022-Y

65,0 %


2023-Y

64,0 %

2024-Y



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)



2024-yilning yanvar-iyunida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tuman va shaharlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, (%) da

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Andijon viloyati	24,3	95,1	65,1	65,4
<i>shaharlar:</i>				
Andijon sh.	28,4	95,7	64,9	24,9
Xonobod sh.	20,1	99,8	64,7	42,5
<i>tumanlar:</i>				
Oltinko‘l	49,1	95,6	71,6	52,2
Andijon	87,5	87,2	66,9	59,4
Baliqchi	82,2	98,7	72,5	96,4
Bo‘ston	62,7	99,1	62,5	52,5
Buloqboshi	66,6	96,1	60,8	96,4
Jalaquduq	89,7	74,6	69,3	89,8
Izboskan	98,9	99,0	64,9	91,5
Ulug‘nor	90,2	70,6	61,4	96,6
Qo‘rg‘ontepa	48,5	97,4	57,2	79,1
Asaka	1,9	95,6	61,2	55,2
Marhamat	54,4	98,2	74,2	41,6
Shahrixon	86,1	98,0	61,3	93,7
Paxtaobod	42,2	99,2	59,6	88,0
Xo‘jaobod	68,9	93,1	66,8	67,7

Tuman va shaharlar bo‘yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi eng ko‘p:

Sanoatda-

Izboskan (98,9 %),
Ulug‘nor (90,2 %),
Jalalquduq (89,7 %),
Andijon (87,5 %),
Shahrixon (86,1%),
Baliqchi (82,2 %),
Xo‘jaobod (68,9 %) tumanlarida


Qurilishda-

Xonobod sh. (99,8 %),
Paxtaobod (99,2 %),
Bo‘ston (99,1%),
Izboskan (99,0 %),
Baliqchi (98,7%),
Marxamat (98,2 %)
Shahrixon (98,0 %) tumanlarida


Xizmatlarda-

Marhamat (77,4%),
Baliqchi (72,5%),
Oltinko‘l (71,6 %),
Jalaquduq (69,3 %),
Andijon (66,9 %),
Xo‘jaobod (66,8%)
Izboskan (64,9 %) tumanlarida

2024-yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 209,9 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 40,8 foizini tashkil etdi.




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da
2024-yil yanvar-iyun holatiga*




2024-yil yanvar-iyun oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Izboskan tumanida – 96,2 %, Buloqbooshi tumanida – 94,0 %, Jalaquduq tumanida – 93,4 %, Andijon tumanida – 91,0 %, Ulug'nor tumanida – 84,9 %, Paxtaobod tumanida – 82,7 %, Qo'rg'ontepa tumanida – 81,2 % ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich esa Asaka tumanida – 4,6 % ni tashkil etdi.

*dastlabki ma'lumot

2024-yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 282,5 million AQSh dollarini yoki umumiy import hajmining 18,1 foizini tashkil etdi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da




2024-yil yanvar-iyun oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Bo'ston tumanida – 100,0 %, Jalaquduq tumanida – 100,0 %, Izbosgan tumanida – 100,0 %, Shahrixon tumanida – 99,9 %, Paxtaobod tumanida – 99,0 %, Qo'rg'ontepa tumanida – 98,5 % va Ulug'nor tumanida 92,8 % ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich esa Asaka tumanida – 0,9 % ni tashkil etdi.




2024-yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan 8 971,8 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.



2024-yilning yanvar-iyunida tuman va shaharlar boʻyicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi, (mlrd. soʻm)




Tuman va shaharlar boʻyicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Andijon shahri (1 495,2 mlrd. soʻm), Baliqchi tumani (1 092,6 mlrd. soʻm), Xoʻjaobod tumani (862,8 mlrd. soʻm), Shahrixon tumani (803,3 mlrd. soʻm) va Andijon tumani (697,4 mlrd. soʻm) tumanlari hissasiga toʻgʻri keladi. Boʻston tumanida (189,9 mlrd. soʻm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past boʻlib qolmoqda.



2024-yil yanvar-iyun oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 24,3 foizni tashkil etdi.



2024-yil yanvar-iyun holatiga tuman va shaharlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da




Tuman va shaharlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Izboskan (98,9 %), Ulug'nor (90,2 %), Jalaquduq (89,7 %), Andijon (87,5 %) Shahrixon (86,1 %), Baliqchi (82,2 %) va Xo'jaobod (68,9 %) tumanlari tashkil etdi. Asaka tumanida (1,9 %) kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi eng past bo'lib qolmoqda.




2024-yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 9 803,6 mlrd. soʻmni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 91,8 foizini tashkil etdi. Oʻsish surʻati 2023-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 107,4 foizni tashkil qildi.



2024-yilning yanvar-iyunida tuman va shaharlar boʻyicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va oʻsish surʻati




Tuman va shaharlar boʻyicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Andijon shahri (2 613,8 mlrd. soʻm), Shahrixon tumani (1 039,5 mlrd. soʻm), Asaka tumani (899,2 mlrd. soʻm) va Baliqchi tumani (873,6 mlrd. soʻm) hissasiga toʻgʻri keladi.



2024-yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 3 542,6 mlrd. soʻmni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 95,1 foizini tashkil etdi. Oʻsish surʻati 2023-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 100,8 foizni tashkil qildi.




2024-yilning yanvar-iyunida tuman va shaharlar boʻyicha kichik biznes subyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi va oʻsish surʻati




Tuman va shaharlar boʻyicha kichik biznes subyektlarining eng koʻp bajarilgan qurilish ishlari hajmi Andijon shahri (1 484,4 mlrd. soʻm), Shahrixon tumani (278,9 mlrd. soʻm), Andijon tumani (239,0 mlrd. soʻm), Oltinkoʻl tumani (177,7 mlrd. soʻm) hamda Izboskan tumanlarida (168,9 mlrd. soʻm) qayd etildi.


2024-yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan 7 764,4 mlrd. soʻmlik xizmatlar koʻrsatildi yoki koʻrsatilgan xizmatlar umumiy hajmining 65,1 foizini tashkil qildi. 2023-yilning yanvar-iyuniga nisbatan 113,0 foizga oʻsdi.



2024-yilning yanvar-iyunida tuman va shaharlar boʻyicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda xizmatlar sohasi hajmi va oʻsish surʼati




Tuman va shaharlar boʻyicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp xizmatlar hajmi Andijon shahri (2 835,3 mlrd. soʻm), Andijon tumani (482,5 mlrd. soʻm), Asaka tumani (477,4 mlrd. soʻm), Baliqchi tumani (460,0 mlrd. soʻm) va Shahrixon tumani (403,3 mlrd. soʻm) hissasiga toʻgʻri keladi.




2024-yil yanvar-iyun oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 96,0 foizni tashkil etdi. 2023-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati 103,1 foizni tashkil qildi.


2024-yil yanvar-iyun oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 77,0 foizni tashkil etgan bo'lib, 2023-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati 104,2 foizni tashkil qildi.



2024-yil yanvar-iyun oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 97,1 foizni tashkil etib, bu esa 2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 102,2 foizga ko'payishiga olib keldi.



2024-yil yanvar-iyun oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 94,9 foizni tashkil etib, 2023-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 104,7 foizga ko'payish kuzatildi.



STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Yuridik shaxs – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

Yuridik shaxslar mustaqil balans yoki smetaga ega bo'lishlari kerak.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Tadbirkorlik sub'ektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Korxonona – huquqiy shaxs huquqiga ega bo'lgan, mulkchilik huquqi yoki xo'jalikni to'la yuritish huquqi bo'yicha o'ziga qarashli mol-mulkdan foydalanish asosida mahsulot ishlab chiqaradigan va sotadigan yoki mahsulotni ayirboshlaydigan, ishlarni bajaradigan, xizmat ko'rsatadigan, bellashuv hamda mulkchilikning barcha shakllari teng huquqliligi sharoitida amaldagi qonunlarga muvofiq o'z faoliyatini ro'yobga chiqaradigan mustaqil xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Korxonaning faoliyatini tahlil qilish – uning asosida korxonona faoliyatini har tomonlama o'rganish. Natijada, ma'lumot to'plashning ma'lum usullaridan foydalanish orqali korxonona faoliyatini baholash va zaif tomonlarini aniqlash uchun kerakli ma'lumotlarni olish.